

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO`JALIGI
VAZIRLIGI**

TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTI

“Tuproqshunoslik va dehqonchilik asoslari” kafedrası

**LANDSHAFTSHUNOSLIK ASOSLARI
FANIDAN MUSTAQIL ISHLARNI BAJARISH BO`YICHA USLUBIY
KO`RSATMA**

(TIMI bakalavriat bosqichi talabalari uchun)



Toshkent – 2014

Ushbu uslubiy ko`rsatma institut ilmiy-uslubiy kengashining 10 iyun 2014 yilda bo`lib o`tgan 8-sonli majlisida ko`rib chiqildi va chop etishga tavsiya etildi.

Tuzuvchilar:

A. Axatov, dotsent

D.Murodova, assistent

Taqrizchilar:

O. Ahmedov, Tuproqshunoslik va
agrokimyo ITDI bo`lim boshlig'i,
q.x.f.n.

I.Musaev, dotsent.

KIRISH

“Landshaftshunoslik asoslari” fani bo'yicha talabalarni mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va uni baholash tartibi TIMI rektorining 2009 yil 19 oktyabr 241 A/F buyrug'i bilan amalga tadbqiq etilgan «Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish to'g'risida»gi buyrug'iga asosan amalga oshiriladi.

Fani bo'yicha talabalarni mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va uni baholash O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi «Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 343-sonli qaroriga va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009 yil 14 avgust 286-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha yo'riqnoma» kabi me'yoriy hujjatlarda belgilab berilgan tartib va qoidalar asosida yuritilishi lozim.

“Landshaftshunoslik asoslari” fanidan talabalar tomonidan mustaqil ishining bajarilishi talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi Nizomi asosida tashkillashtiriladi.

Talabalarning mustaqil ishlarining umumiy hajmi o'quv rejaga muvofiq 31 soatni tashkil etadi. O'quv semestri yakunida, talabaning Landshaftshunoslik fanidan mustaqil ishi bo'yicha to'plagan reyting ballari auditoriyadagi o'quv ishlariga berilgan reyting ballari bilan birgalikda umumiy ballini tashkil etadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida chuqur nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda tanlagan sohasi bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, o'z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondoshgan holda muammoli vaziyatlarni to'g'ri aniqlab, tahlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Ma'lumki, axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlari paytida talabalarga etkazish qiyin.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, talaba mustaqil ravishda shug'ullansa va o'z ustida tinimsiz ishlasagina bilimlarni chuqur o'zlashtirishi mumkin. Talabalarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalari mustaqil ta'lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi.

Shuning uchun talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini reja-lashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg'ulotlarida talabalarni o'qitish bilan bir qatorda ularni ko'prok o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish, mustaqil ta'lim olish uchun yo'llanma berish oliy ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Professor-o'qituvchi dastlab talabada o'z qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg'otishi, ularni sabr-toqat bilan, bosqichma-bosqich mustaqil bilim olishni to'g'ri tashkil qilishga o'rgatib borishi lozim bo'ladi. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda o'zlashtiriladigan bilim va ko'nikmalarning kursdan-kursga murakkablashib, kengayib borishini hisobga olgan holda ularning tashabbuskorligi

va rolini oshirib borish zarur. Shunda mustaqil ta'limga ko'nika boshlagan talaba faqat o'qituvchi tomonidan belgilab berilgan ishlarni bajaribgina qolmay, o'zining extiyoji, qiziqishi va qobiliyatiga qarab, o'zi zarur deb xisoblagan qo'shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda tanlab o'zlashtirishga o'rganib boradi.

«Landshaftshunoslik asoslari» fani bo'yicha talaba mustaqil ishining maqsad va vazifalari:

Mustaqil ish bajarilishining asosiy maqsadi – kafedra professor-o'qituvchilarining bevosita rahbarligi va nazorati ostida talabalarni semestr davomida fanlarni uzluksiz o'rganishini tashkil etish, olingan bilim, ko'nikmalarini chuqur o'rganib mustahkamlash, kelgusidagi darslarga tayyorgarlik ko'rish, aqliy mehnat madaniyatini, Yangi bilimlarni mustaqil ravishda ishlab topish va qabul qilishini shakllantirish hamda ushbu tariqa institutda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga erishishdan iborat.

Mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- talabalarni mustaqil ishini tashkil etishda, professor-o'qituvchilar tomonidan yagona uslubiy yondoshish bo'yicha sharoit yaratish;
- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- zarur ma'lumotlarni izlab topish uchun qulay usullarni va vositalarni aniqlash;
- axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar hamda me'yoriy xujjatlar bilan ishlash;
- elektron o'quv va ilmiy adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- INTERNET tarmog'idan maqsadli foydalanish;
- Berilgan topshiriqning oqilona echimini aniqlash;
- Ma'lumotlar bazasini tahlil etish;
- Ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash;
- Topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;
- Ishlab chiqarilgan echim, loyiha yoki g'oyani asoslash va mutaxassislar davrasida ximoya qilish;
- Talabalarda o'quv, ilmiy-tadqiqot va amaliy ishlar bo'yicha mustaqil ko'nikmalarni shakllantirishga ko'maklashish;
- Talaba shaxsini barkamol rivojlanishi uchun shart sharoitlar yaratish.

Talaba mustaqil ishinng tashkiliy shakllari:

- Talaba mustaqil ishini tashkil etishda muayyan fanning xususiyatlarini, shuningdek, har bir talabaning akademik o`zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:
- Ayrim nazariy mavzularni turli xil o`quv adabiyotlar yordamida mustaqil o`zlashtirish;
- Berilgan mavzu bo`yicha axborot (referat) tayyorlash;
- Seminar mashg`ulotlarga tayyorgarlik ko`rish;
- Nazariy bilimlarni amaliyotda qo`llash;
- Amaliyotdagi mavjud muammolarning echimini topish (keys-stadilar orqali);
- Ilmiy maqola, anjumanlarga ma`ruza tezislarini tayyorlash;
- Talabalarni ilmiy jamiyatlari va to`garaklarda ishtirok ettirish;
- Fakul`tativlar va maxsus seminarlar ishlarida ishtirok etish;
- Kafedra ilmiy hamda ilmiy – uslubiy ishlarida ishtirok etish va hokazolar;

O`qilayotgan fanning xususiyatlardan kelib chiqqan holda, talaba mustaqil ishini tashkil etishda kafedra boshqa shakllardan ham foydalanishlari mumkin;

«**Landshaftshunoslik asoslari**» fani bo`yicha namunaviy va ishchi dasturlarida talaba mustaqil ishining shakli, mazmuni va hajmi ifoda etiladi.

Talaba mustaqil ishi uchun ajratilgan vaqt byudjetiga mos ravishda institutda o`tiladigan har bir fan bo`yicha tegishli kafedralarda mustaqil ishining tashkiliy shakllari, topshiriqlar variantlari ishlab chiqiladi va ular fakul`tet ilmiy – uslubiy kengashida tasdiqlanadi.

Talabalar mustaqil ishini bajarish uchun har bir fan bo`yicha tegishli o`qituvchilar tomonidan zaruriy uslubiy qo`llanma, ko`rsatma hamda tavsiyalar ishlab chiqariladi va ular fekul`tet ilmiy – uslubiy kengashida tasdiqlanadi.

Kafedrada talabalar mustaqil ishini tashkil etishni professor-o`qituvchilari amalga oshiradi.

Talaba mustaqil ishining axborot ta`minoti:

Talaba uchun “T va D” kafedrası bo`yicha mustaqil ish topshiriqlari kafedra professori (yoki etakchi dotsenti) tomonidan o`quv mashg`ulotlarini bevosita olib boruvchi o`qituvchi bilan birgalikda tuziladi hamda kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi. Talabaga berilgan topshiriqda mustaqil ishni bajarish bo`yicha dastlabki ko`rsatma va tavsiyalar qayd etiladi.

Mustaqil ishni bajarish uchun talabaga axborot manbasi sifatida darslik va o`quv qo`llanmalar, uslubiy qo`llanma va ko`rsatmalar, ma`lumotlar to`plami, ilmiy va ommaviy davriy nashrlar, Internet tarmog`idan tegishli ma`lumotlar, berilgan mavzu bo`yicha avval bajarilgan ishlar va boshqalar xizmat qiladi.

“T va D” kafedrası mudiri mustaqil ishlarni bajarilishi uchun zaruriy moddiy–texnik bazasini Yaratadi, hamda axborot manbalari va vositalari bilan ta`minlaydi, talabalarga turli kutubxonalar, ishlab chiqishdagi tarmoq muassasalari va korxonalardan mustaqil ish uchun zaruriy ma`lumotlar to`plash yuzasidan so`rovnoma xatlarini rasmiylashtirib beradi.

Institut rahbariyati tomonidan talabalarga mustaqil ishlarni o`z vaqtida bajarish uchun amaldagi me`yorlar asosida jihozlangan o`quv zaliga ega bo`lgan kutubxona, uslubiy kabinetlar, auditoriyalar, etarli komp`yuter texnikasiga ega bo`lgan komp`yuter sinflari va Internet tarmog`idan samarali foydalanish uchun shart – sharoitlar Yaratib beriladi.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish va baholash.

Har bir fan bo`yicha talaba mustaqil ishiga rahbarlik qilish yuklamasi professor - o`qituvchi shaxsiy ish rejasining tashkiliy – uslubiy bo`limida (1540 soat doirasida) qayd etiladi.

Talaba mustaqil ishiga rahbarlik qilish «TvaD» kafedrasida tuziladigan va fakul`tet dekani tomonidan tasdiqlangan konsul`tatsiyalar asosida amalga oshiriladi.

Talabaning mustaqil ishi bo`yicha konsul`tatsiya soatlarni guruh jurnalida qayd etib boriladi.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish kafedrada ishlab chiqilgan jadval va fanning texnologiya kartasi asosida olib boruvchi professor – o`qituvchilar tomonidan amalga oshiriladi.

Talabaning mustaqil ishi, muayyan fan ishchi dasturda ajratilgan soatlarga mos reyting ballari bilan baholanadi va natijada fan bo`yicha talabaning umumiy reytingiga kiritiladi.

Talabaning reyting ko`rsatkichlari, shu jumladan mustaqil ishi bo`yicha fakul`tetning an`anaviy guruh reytingi oynasida yoki maxsus elektron tarmog`ida yoritib beriladi.

Talaba mustaqil ishining nazorat qilish turlari va uni baholash mezonlari institutning tegishli kafedralari tomonidan ishlab chiqiladi va fakul`tet Ilmiy kengashida tasdiqlanadi. Mustqil ishlarni baholash mezonlari talablariga o`quv yili boshlanishi oldidan uslubiy materiallar bilan birgalikda tarqatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2005 yil 30 sentYabrdagi № 217-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini baholash reyting tizimini takomillashtirish haqida"gi buyrug'ining 5-bandi asosida talabaning fan bo'yicha mustaqil ishi joriy baholash, oraliq baholash va Yakuniy baholash turlari baholanadi. Mustaqil ish bo'yicha belgilangan maksimal reyting balining 55% dan kam ball to'plagan talaba fan bo'yicha yakuniy nazoratga qo'yilmaydi.

Fanlar kesimida talabalarning mustaqil ishlari bo'yicha o'zlashtirish muntazam ravishda talabalar guruxlarida, kafedra yig'ilishlari va fakul'tet Ilmiy kengashlari muhokama etib boriladi.

Talabaning mustaqil ishi materiallar kafedra arxivida ro'yxatga olinadi va o'quv yili mobaynida saqlanadi.

«Landshaftshunoslik aoslari»

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Landshaftlarni shakllantiruvchi asosiy omillar.
2. Landshaftlarni tavsiflashda foydalaniladigan taksonomik birliklar
3. Landshaftlar tarkibini belgilovchi geografik ko'rsatkichlar
4. Landshaftlar o'zgarishiga ta'sir etuvchi tabiiy va antropogen omillar.
5. Antropogen landshaftlarni shakllanishida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining ta'siri.
6. Landshaftlarni o'zgarishi va suv zahiralari.
7. Landshaftlar muhofazasini ta'minlovchi tadbirlar tarkibi, tashkiliy xo'jalik sharoitlari
8. Landshaft va er tuzish ishlarini loyihalash
9. Er tuzish ishlarini loyihalashda landshaftning xilma xilligini inobatga olish va bashorat qilish
10. Davlat er kadastri va landshaftlar holatini baholash
11. Landshaftshunoslik fanining rivojlanishiga hissa qo'shgan O'rta Osiyo olimlari
12. Landshaft xosil bulishi – landshaft shakllanishining omili.
13. Er zaxiralari – asosiy ishlab chikarish vositasi.

- 14.Landshaftshunoslik fanining geodezik ishlarni tao`kil etishdagi ahamiyati.
- 15.Antropogen landshaftlar va ularni tasnifi.
- 16.Landshaftlarni tipologik tarkibi.
- 17.Landshaft muvozanati va zaxirasi tugrisida.
- 18.Atmosfera va iklim tugrisida.
- 19.Landshaftning o`rganish va xaritasini tuzishning xususiYatlari.
- 20.Tabiiy rayonlashtirishning tarixi va xaritalari.

1. TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINING SHAKLI VA HAJMI

Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi jihatlar e`tiborga olinishi lozim:

- o`qish bosqichi;
- muayyan fanning o`ziga xos xususiYati va o`zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;
- talabaning qobiliYati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi (taYanch bilimi);
- fanning axborot manbalari bilan ta`minlanganlik darajasi;
 - talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestrda-semestrga ko`nikmalar hosil bo`lishiga muvofiq ravishda o`zgarib, oshib borishi lozim. ya`ni, talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularni topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashishga o`rgatib borish zarur bo`ladi.

Talabalar mustaqil ishlari (TMI)ni tashkil etishda talabaning akademik o`zlashtirish darajasi va qobiliYatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- fanning ayrim mavzularini o`quv adabiyotlari yordamida mustaqil o`zlashtirish, o`quv manbalari bilan ishlash;
- amaliy, seminar mashg`ulotlariga tayyorgarlik ko`rib kelish;
- ma`lum mavzu bo`yicha referat tayyorlash;
- maket, model` va texnik asarlar ustida ishlash;
- amaliyotdagi mavjud muammoning echimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;
- ilmiy maqola, tezislar va ma`ruza tayyorlash;
- amaliy mazmundagi nostandart masalalarni echish va ijodiy ishlash;
- uy vazifalarini bajarish va boshqalar;

Fan xususiyatidan kelib chiqqan holda talabalarga mustaqil ish uchun boshqa shakllardagi vazifalar ham topshirilishi mumkin. Talabalarga qaysi turdagi topshiriqlarni berish lozimligi kafedra tomonidan belgilanadi. Topshiriqlar puxta

o`ylab ishlab chiqilgan va ma`lum maqsadga yo`naltirilgan bo`lib, talabalarning auditoriya mashg`ulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va to`ldirishga xizmat qilishi kerak.

**“LANDSHAFTSHUNOSLIK ASOSLARI”
FANI MAVZULARI BO`YICHA BAJARILADIGAN
MUSTAQIL ISHLAR SHAKLI VA HAJMI**

№	Mavzu nomi	Soati	Ish shakli va unga qo`yilgan talablar
1.	Landshaftlarni shakllantiruvchi asosiy omillar	3	Taqdimot uslubi, Esse
2.	Landshaftlarni tavsiflashda foydalaniladigan taksonomik birliklar	3	Referat, blits-so`rov uslubi
3.	Landshaftlar tarkibini belgilovchi geografik ko`rsatkichlar	3	T-sxema texnikasi, blits-o`yin uslubi
4.	Landshaftlar o`zgarishiga ta`sir etuvchi tabiiy va antropogen omillar	3	Aqliy hujum uslubi, taqdimot
5.	Antropogen landshaftlarni shakllanishida qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishining ta`siri	3	Blits-o`yin uslubi, tushunchalar tahlili uslubi
6.	Landshaftlarni o`zgarishi va suv zahiralari	3	Bahs-munozara uslubi, konferentsiya uslubi
7.	Landshaftlar muhofazasini ta`minlovchi tadbirlar tarkibi, tashkiliy xo`jalik sharoitlari	3	Baliq skleti texnikasi
8.	Landshaft va er tuzish ishlarini loyihalash	3	Klaster uslubi
9.	Er tuzish ishlarini loyihalashda landshaftning xilma xilligini inobatga olish va bashorat qilish	3	Bahs-munozara uslubi
10.	Davlat er kadastri va landshaftlar holatini baholash	4	Bahs-munozara uslubi
	JAMI	31	

MAVZUNI MUSTAQIL O`ZLASHTIRISH

Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o`quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o`zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e`tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko`rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o`quv adabiyotlaridan foydalanib, ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o`zlashtirish qiyin bo`lsa, savollar paydo bo`lsa, adabiyotlar etishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k.) o`qituvchidan maslahatlar oladilar.

Mustaqil o`zlashtirilgan mavzu bo`yicha tayyorlangan matn kafedrada himoya qilinadi.

REFERAT TAYYORLASH

Talabaga qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq; bo`lgan biror mavzu bo`yicha referat tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo`shimcha adabiyotlardan (monografiyalar, ilmiy, uslubiy maqolalar, Internetdan olingan ma`lumotlar, elektron kutubxona materiallari va h.k.) foydalanib materiallar yig`adi, tahlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo`yicha imkon darajasida to`liq, keng ma`lumot berishga harakat qiladi. Zarur hollarda o`qituvchidan maslahat va ko`rsatmalar oladi.

Yakunlangan referat kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

KO`RGAZMALI VOSITALAR TAYYORLASH

Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq, o`zlashtirish uchun yordam beradigan ko`rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, xaritalar, maketlar, modellar, grafiklar, namunalar, texnik asar, kichik texnik asar va h.k.) tayyorlash topshiriladi. Mavzu o`qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma`lum ko`rsatmalar, yo`l-yo`riqlar beriladi. Ko`rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo`yicha bir necha talabaga topshirish ham mumkin.

Talaba ko`rgazmali materiallardan foydalanish bo`yicha yozma ravishda tavsiyalar tayyorlaydi va kafedrada himoya qiladi.

MAVZU BO`YICHA TESTLAR, MUNOZARALI SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR TAYYORLASH

Talabaga muayyan mavzu bo`yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo`lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo`ladigan savollar tuzish topshiriladi.

Bunda o`qituvchi tomonidan talabaga testga qo`yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidolari, qanday maqsad ko`zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali momentlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo`yicha yo`l-yo`riq beriladi. Konsul'tatsiya paytlarida bajarilgan ishlarning qo`yilgan vazifa va talablarga javob berish darajasi nazorat qilinadi (qayta ishlab kelish, aniqlashtirish yoki to`ldirish taklif etilishi mumkin).

Test, savol va topshiriqlar majmuasi kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

ILMIY MAQOLA, TEZISLAR VA MA`RUZALAR TAYYORLASH

Talabaga biron-bir mavzu bo`yicha (mavzuni talabaning o`zi tanlashi ham mumkin) ilmiy (referativ) xarakterda maqola, tezis yoki ma`ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o`quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to`playdi, tahlil qiladi, zarurlarini ajratib olib, tartibga soladi, shaxsiy tajribasi va bilimi, ilmiy natijalariga asoslangan holda qo`shimchalar, izohlar kiritadi, o`z nuqtai-nazarini bayon etadi va asoslaydi. Bunda talaba o`qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi.

Tayyorlangan makola, tezis yoki ma`ruza kafedrada himoya qilinadi.

AMALIY MAZMUNDAGI NOSTANDART MASALALARNI ECHISH VA IJODIY ISHLASH

Bir mavzu yoki bo`lim bo`yicha nostandart, alohida yondashish talab qilinadigan, nazariy ahamiyatga ega bo`lgan amaliy topshiriqlar, ijodiy yondashish talab qilinadigan ilmiy-ijodiy vazifalar, modellar, maketlar, namunalar yaratish

vazifasi topshirilishi mumkin. Amaliy toshpiriqlar masalani hal qilishning optimal variantlarini izlashga va topishga qaratilgan bo`lishi kerak.

Talabaning qiziqish va qobiliyatiga qarab, unga ilmiy xarakterdagi topshiriqlar berish, o`qituvchi bilan hamkorlikda ilmiy maqolalar tayyorlash va chop ettirish mumkin.

Talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etishda:

tizimli yondashish;

barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish va uzviylashtirish;

bajarilishi ustidan qat`iy nazorat o`rnatish, tashkil etish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirib borish zarur.

2. MUSTAQIL ISHGA QO`YILADIGAN TALABLAR

Mustaqil ish topshiriqlari muvaffaqiyatli yakunlanishi uchun quyidagi talablar bajarilishi lozim:

- maqsad (bilimni mustahkamlash, yangi bilimlarni o`zlashtirish, ijodiy faollikni oshirish, amaliy ko`nikma va malakalarni shakllantirish va h.k.), aniq asoslanishi;
- vazifa va topshiriqlarning aniq belgilanishi;
- topshiriqlarni bajarish algoritmi va metodlaridan talabalarning etarli darajada xabardor bo`lishi;
- maslahat va boshqa yordam turlarining to`g`ri belgilanishi (yo`llanma va ko`rsatma berish, mavzuning mazmuni va mohiyatini tushuntirish, muammoli toshpiriqlarni bajarish usullari bo`yicha tushuncha berish, ayrim muammoli momentlarni birgalikda hal qilish va h.k.);
- hisobot shakli va baholash mezonini aniq belgilash;
- nazorat vaqti, shakli va turlarini aniq belgilab olish (amaliy seminar, laboratoriya mashg`ulotlari, konsul'tatsiya yoki nazorat uchun maxsus

ajratilgan vaqt; ma`ruza yoki referat matni, bajarilgan topshiriqlar daftari, nazorat ishlari, uy vazifasi daftari, test, maqola, nostandart topshiriqlar, savollar, maqola, ko`rgazmali jihozlar va ijodiy ishlar; savol-javob, bajarilgan ish mazmuni va mohiyatini tushuntirib berish, yozma shaklda bayon qilish va h.k.).

Talabalar mustaqil ishini shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin:

1. Auditoriyada amalga oshiriladigan TMilari - O`tilgan mavzuni qayta ishlash, kengaytirish va mustahkamlashga oid topshiriqlar bajariladi;
2. Auditoriyadan tashqarida amalga oshiriladigan TMilari. O`quv dasturidagi ayrim mavzularni mustaqil holda o`zlashtirish, uyga berilgan vazifalarni bajarish, amaliy ishlariga tayyorgarlik ko`rib kelish, ijodiy va ilmiy-tadqiqot xarakteridagi ishlar va h.k.

Birinchi tur ishlari talabalarining nazariy va amaliy bilimlarini o`zlashtirib borish darajasi, amaliy mashg`ulotlarga (amaliyot, seminar darslari) tayyorgarlik saviyasi va uy vazifalarining bajarilish sifatini tekshirish maqsadida, odatda, nazorat ishlari olish, savol-javob, suhbat, munozara, amaliy topshiriqlarni bajartirib ko`rish va h.k. usullarda asosan amaliyot darslarida nazorat (joriy nazorat) qilinadi.

Joriy nazoratda talabaning dars paytida o`tilgan materiallarni o`zlashtirish va uyga berilgan topshiriqlarni bajarishdagi faolligi, bajarish saviyasi va o`zlashtirish darajasi e`tiborga olinadi,

Ikkinchi tur ishlar fanning ishchi o`quv dasturida auditoriyadan tashqarida o`zlashtirilishi belgilangan mavzu bo`yicha ma`lumot va axborotlarni mustaqil ravishda izlab topish, tahlil qilish, konspektlashtirish (yoki referat tarzida rasmiylashtirish) va o`zlashtirish, ijodiy yondashishni talab qiladigan amaliy topshiriqlarni bajarish ko`rinishida amalga oshiriladi. Bu turdagi ishlarni bajarish jarayoni va o`zlashtirish sifatining nazorati darsdan tashqari paytlarda, maxsus belgilangan konsultatsiya soatlarida amalga oshiriladi.

3. ISHNING REJASINI TUZISH VA BAJARILADIGAN ISHLARNI NAZORAT QILISH

Talaba ishning rejasini tuzishda ilmiy rahbar bilan maslahatlashgan holda amalga oshirishi kerak. Ishning rejasi tuzilgandan so`ng talaba kafedra mudiri yoki uning yordamchisidan tasdiqlatib olishi lozim.

Talaba ish rejasini tasdiqlatib olgandan so`ng rejaga qat`iy amal qilgan holda ishni bajarishi lozim. Har bir vazifani bosqichma-bosqich qat`iy reja bo`yicha ilmiy rahbar nazoratida amalga oshirishi kerak. Birinchi bosqich vazifalari bajarilmasdan keyingisiga o`tib bo`lmaydi. Bir bosqich amalga oshirilmay qolsa ishdan samarali natija kutib bo`lmaydi.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish kafedrada ishlab chiqilgan jadval va fanning texnologik kartasi asosida olib boruvchi professor-o`kituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

«Landshaftshunoslik» fani bo`yicha talabaning mustaqil ishi, fan ishchi dasturida ajratilgan soatlarga mos reyting ballari bilan baholanadi va natijasi fan bo`yicha talabaning umumiy reytingiga kiritiladi. Talabaning reyting ko`rsatkichlari, shu jumladan mustaqil ishi bo`yicha fakul'tetning an`anaviy guruh reyting oynasida yoki maxsus elektron tarmog`ida yoritib boriladi.

Talaba mustaqil ishining nazorat qilish turlari va uni baholash mezonlari ishlab chiqilgan va fakul'tet Ilmiy kengashida tasdiqlangan.

«Landshaftshunoslik asoslari» fani bo`yicha mustaqil ishlarni baholash mezonlari talabalarga o`kuv yili boshlanishi oldidan uslubiy materiallar bilan birgalikda tarqatiladi.

Mustaqil ish bo`yicha belgilangan maksimal reyting balining 55% dan kam ball to`plagan talaba fan bo`yicha yakuniy nazoratga qo`yilmaydi.

«Landshaftshunoslik asoslari» fanidan talabalarning mustaqil ishlari bo'yicha o'zlashtirishi muntazam ravishda talabalar guruxlarida, kafedra yig'ilishlari va fakul'tet Ilmiy Kengashlarida muhokama etib boriladi.

Talabaning mustaqil ishi materiallari kafedra arxivida ro'yxatga olinadi va o'kuv yili mobaynida saqlanadi.

4. MUSTAQIL ISHDA AMALGA OSHIRILISHI ZARUR BO'LGAN VAZIFALAR

4.1. Kafedraning asosiy vazifalari

Kafedra tomonidan mustaqil ishni amalga oshirishda quyidagi ishlar amalga oshirilishi kerak.

- mustaqil ish mavzularini tasdiqlash va qayta ko'rib chiqish;
- talaba mavzuni o'rganishda unga kerakli ko'rsatmalar va amaliy yordam berish;
- talabaga ilmiy rahbarlarni tayinlash va biriktirish;
- talabaning ishini tayyorlashi uchun rajani tasdiqlab berish va uning vazifasini bajarishini nazorat qilish;
- talaba tomonidan bajarilgan ishning sifatiga taqriz berishdan iborat bo'ladi.

4.2. Ilmiy rahbarning vazifalari

Talabaning ilmiy rahbari ishga rahbarlik qilishda quyidagi vazifalarni bajarishi kerak.

- talaba ishni bajarishi uchun vazifani tasdiqlab berishi;
- ishning rejasini tuzishda talabaga yordam berishi va adabiyotlarni tavsiya etishi;
- talabaning rejasini tasdiklashi, reja bo'yicha muntazam ravishda ishni tekshirishi, maslahatlar va ko'rsatmalar berishi;
- talaba ishni bajarishida tashkiliy va uslubiy yo'nalishlar berib borishi.

4.3. Talabaning vazifalari

Talaba mustaqil ishni bajarish jarayonida quyidagilarni bajarishi lozim:

- ishning mavzusini kafedraning talablaridan kelib chiqqan holda tanlash;
- ilmiy rahbarning tuzib bergan rejasida berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishi;
- o'rnatilgan tartib bo'yicha mustaqil ishning hisobotini o'z vaqtida kafedraga taqdim etishi kerak.

5. TALABALAR MUSTAQIL ISHINI BAHOLASH

TMI natijalari amaldagi "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizom"ga asosan baholab boriladi.

6. TALABALAR MUSTAQIL ISHI BO'YICHA KONSUL'TATSIYALAR TASHKIL ETISH TARTIBI

1. Talabalar mustaqil: ishi (TMI) bo'yicha konsul'tatsiya darsi auditoriyadan tashqarida amalga oshirishga mo'ljallangan mustaqil ishlarni bajarish yuzasidan tegishli yo'llanmalar berish va uni bajarilishini nazorat qilib borish maqsadida tashkil qilinadi.

2. TMI bo'yicha konsul'tatsiya darsi fanning kalendar'-tematik rejasiga muvofiq o'tkaziladi.

3. Konsul'tatsiya darsi tegishli fan o'qituvchisi tomonidan o'tkaziladi.

4. Fan o'qituvchisi konsul'tatsiya darsida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

TMI topshiriqlarini bajarish yuzasidan tegishli yo'llanma beradi; topshiriqni bajarish rejasini tuzishga yordamlashadi;

tegishli adabiyotlar va axborot manbalarini tavsiya qiladi;

TMI yuzasidan tayyorlangan ishlanma, xisobot, referat, xisob-kitob va topshiriq natijalarini qabul qiladi xamda baholaydi.

5. TMI bo'yicha konsul'tatsiyalar o'quv jarayonining 1 yoki 2 smenada tashkil etilishiga qarab talabalarning darsdan bo'sh vaqtlarida dars jadvaliga kiritiladi.

6. TMI bo'yicha konsul'tatsiya darslari o'qituvchi jurnalida qayd etib boriladi.

7. Ishga tayyorgarlik

7.1. Adabiyotlarni tanlash

Fanga ta'luqli bo'lgan kuyidagi barcha turdagi adabiyotlarni va manbalarni ko'rib chiqish lozim:

- maxsus, ilmiy, ilmiy-ommobop, statistik va umumiy ma'lumotnomalar, me'yoriy hujjatlar.

7.2. Adabiyotlarni o'rganish va asosiy ma'lumotlarni yig'ish

Adabiyotlarni o'rganishdan oldin Yana bir bor mavzuni to'g'ri tanlanganligiga ishonch hosil qilish lozim. Talaba adabiyotlarni mustaqil va to'g'ri tanlashi kerak. Ilmiy rahbarning vazifasi talaba tanlagan manbalarni qayta ko'rib asosiylarini qoldirishdir.

Manbalarni to'plashda talaba uning chop etilgan yiliga ham alohida e'tibor berishi lozim. Chunki eski manbalardan olingan ma'lumotlar bugungi kundagi dolzarb hisoblangan muammolarni echishda unchalik ahamiyatli bo'lmay qoladi.

Talaba bir nechta manbalarni qiyosiy tahlil qilgan holda o'ziga eng ma'qul deb topgan ma'lumotlarni tanlay bilgandagina olib borgan tadqiqoti samara beradi.

8. MUSTAQIL ISH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

8.1. Hukumat qarorlari va Prezident farmoyishlari

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. Ramazonov O., Yusupbekov O. Landshaftshunoslik va dehqonchilik. T. SHarq, 2003. – 272 b.
2. Ramazonov O., Yusupbekov O. Tuproqshunoslik va dehqonchilik. - T.: Sharq, 2005. - 280 b.
3. V.M. Chupaxin – «Osnovi landshaftovedeniYa». M.1987 god.
4. Yu. Sultonov – «Landshaftlar geografiyasi». T.1974 yil.
5. SH.S.Zokirov – «Landshaftshunoslik asoslari». T.1994 yil.
6. SH.S.Zokirov – «Antropogen va amaliy landshaftshunoslik». T.1998 yil.
7. O.Ramazonov, T.Ishpulatov, A.Abduraxmonov – «Landshaftshunoslik asoslari». Ma`ruzalar to`plami, TIMI.T. 2004 yil.

II. Internet saytlari

1. www.gaap.ru (Xalqaro standartlar)
2. www.greenworld.org.ru
3. www.cultinfo.ru
4. <http://www.referat.ru>
5. www.ziyo.net

Mundarija

Kirish.....	3
1 Landshaftshunoslik asoslari fani bo`yicha mustaqil ishining maqsad va vazifalari.....	4
2 Talaba mustaqil ishinng tashkiliy shakllari.....	5
3 Mustaqil ish mavzulari.....	7
4 Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmi.....	8
5 Mustaqil ishga qo`yiladigan talablar.....	12
6 Ishning rejasini tuzish va bajariladigan ishlarni nazorat qilish.....	14
7 Mustaqil ishda amalga oshirilishi zarur bo`lgan vazifalar.....	15
8 Talabalar mustaqil ishini baholash.....	16
9 Talabalar mustaqil ishi bo`yicha konsul`tatsiyalar tashkil etish tartibi.....	16
10 Ishga tayyorgarlik.....	17
11 Mustaqil ish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar.....	18

Axatov Abdusamat

Murodova Dilrabo Ergashevna

LANDSHAFTSHUNOSLIK ASOSLARI
FANIDAN MUSTAQIL ISHLARNI BAJARISH BO`YICHA USLUBIY
KO`RSATMA

(TIMI bakalavriat bosqichi talabalari uchun)

Muxarrir:

M.Nurtaeva

Bosishga ruxsat etildi_____

Qog'oz o'lchami 60x84 1/16

Hajmi 1,2 b.t. 5 nusxa

Buyurtma №

TIMI bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent - 100 000. Qori-Niyoziy ko'chasi 39-uy.